

O'ZBEK VA TURK XALQLARINING MADANIYATIDA QORA RANG

Musayeva Shahnoza Jalol qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: PhD. I.Yoqubov

Annotatsiya: Har bir millat, har bir inson olamni o'zicha, o'z imkoniyatidan kelib chiqib anglaydi. Shu bois muayyan rangning ham turli millat vakillarida, turli sohalarda, hatto bir millatga mansub turli kishilarda tushunilishi, anglanishi, tanilishi va ta'siri turlicha bo'ladi. Ya'ni muayyan rang kimgadir yoqimli bo'lsa, kimgadir yoqimsiz, noxush; kim uchundir tinchlantiruvchi, kayfiyatni ko'taruvchi bo'lsa, kim uchundir diqqatni tortuvchi, asabga teguvchi bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada o'zbek va turk xalqlarining madaniyatidagi “qora rang” konseptining qiyosiy tahlili o'rganildi va o'xshash va farqli tomonlari berildi.

Kalit so'zlar: O'zbek, turk, madaniyat, rang, qora rang.

Tilimiz tarixiga nazar solsak, ranglar haqidagi ilmiy adabiyotlarda biror bir rangning lingvokulturologik nuqtayi nazaridan tahlil etilmaganligi ayon bo'ladi. Manbalar izlash jarayonida ayon bo'ldiki, ko'k, qora va bir ikki ranglardan boshqa hech bir rang ustida ilmiy izlanish qilinmagan, vaholangki, bu faqat psixologlar yoki tilshunoslarning vazifasi emas. Har bir millat va inson qalbida ranglarga nisbatan ma'lum tuyg'u shakllangan bo'ladi. Bu tuyg'uning shakllanishiga esa, xalqning tarixiy turmush tarzi, urf-odatlar, diniy e'tiqodi va boshqalar asos bo'ladi. Ranglar va ularning milliy tushunchalarda aks etishini o'rganish oson ish emas. Chunki ranglar u yoki bu xalqning tashqi olami, ijtimoiy-madaniy hayoti, urf odatlari, marosim, adabiyot va san'atga doir qadimiy qarashlar bilangina emas, balki tarixiy, xranologik, mifalogik, diniy-ilohiy tushuncha va tasavvurlar bilan ham bog'lanib ketgan.

Rang - moddalar chiqargan yoki qaytargan nurlanish spektriga mos ravishda yorug'likning muayyan ko'rish tuyg'usini hosil qilish xossasi. Nurlanishning yorug'lik energiyasi atrofidagi buyumlardan qaytib, ko'z qorachig'i orqali ko'zning sezgir hujayraviy qabul qiluvchi pardasiga tushib, unga faol ta'sir qiladi. Modda qaysi rangdagi nurni yutsa, o'sha rangdagi nurni o'zidan chiqaradi. Rangning spektri moddani tashkil etuvchi atom va molekulalar xususiyatiga o'zgarishi mumkin. Spekrni tashkil etuvchi nurlar energiyasining zichligi bir-biriga

yaqin bo‘lganda oq rang hosil bo‘ladi. Yorituvchanlik yoki yoritilganlikning kamayishi natijasida moddalar rangi noaniqlashadi.¹

Qadim zamonlardan beri oq yaxshi narsalar bilan, qora esa, aksincha, yovuzlik, muammo, xavf va boshqalar bilan bog‘lanadi. Natijada yer yuzidagi barcha salbiy narsalar qora rang bilan ifodalanadi, masalan, qora belgi, qora ro‘yxat, qora sehr kabi. Shuning uchun ham insonlarning ko‘pchiligi o‘z psixologiyasida bu rangga nisbatan salbiy fikrga ega. Ammo qora rang bilan bog‘liq salbiy iboralar (bloklash-elektrni yo‘qotish yoki chiroqlarni o‘chirish, lackguard- shafqatsizlik, qorabozor-noqonuniy savdo (mol yoki pul), qora qo‘y- oila yoki jamiyatdan chiqib ketgan shaxs) qatori ijobiy iboralar (*qora belbog‘ ustasi*- jang sohasi mutaxassisi, *qora quti*- uskuna yoki apparatlar qutisi, *qora galstuk*- rasmiy libos belgisi, *blackwash*- narsalarni, ochiq-oydin tasavvur etish) ham yo‘q emas.

Koloristika -bu ranglar haqidagi fan bo‘lib, u rang madaniyati va tili, rang garmoniyasi poydevoriga tayanadi va bir vaqtning o‘zida jamiyatning rang madaniyati haqidagi tasavvuriga ham asoslanadi. Ranglar haqidagi fan juda qadimdan paydo bo‘lgan. Inson rang sirlarini qadam- baqadam ochishga harakat qilgan. Eramizgacha bo‘lgan IV asrlardayoq qadimgi yunon faylasufi Aristotel rang va rang hodisalarini aniqlashga harakat qilgan. O‘rta asrlarda esa, rangni diniy nuqtayi nazardan o‘rganish boshlandi. Leonardo da Vinchi garmonik qarama-qarshi ranglarni aniqlaydi. Bular: oq-qora, ko‘k-sariq, qizil-yashil. Shunday qilib, ranglar haqidagi fan paydo bo‘ldi. Olti xil rangli qatorlar haqidagi fikrni F.Runge, A.Shopengauer, U.Adame, E.Delakrua, Van Gog, V. Kandinski va boshqalar rivojlantirdilar. Ranglar haqidagi ilk ta’limot Gyotega tegishlidir. Uning fikricha, barcha quyuq ranglar odamni tinchlantiradi, yengil ranglar esa, hayajonga soladi. Ya’ni ranglarga nisbatan bo‘lgan munosabat sharoitdan kelib chiqadi. Ranglar ma’lum bir matnda qabul qilinadi.² Psixologlar orasida qora rang haqidagi fikrlar juda qarama-qarshidir. Ba’zilar buni nafislik, shahvoniylik va nafosat bilan bog‘liq deb aytishadi. Ayrim psixologlar esa, qora rangni qattiqlik, kuch va aftoritarizm bilan bog‘laydi. Shuning uchun bu rang biznes sohalarida ustun turadi, bu yerda eng kuchlilar omon qoladi.

Marketing va brending psixologiyasida qora jasurlik, rasmiyatchilik, sir, kuch, hashamatlilik va jiddiylik bilan bog‘liq. Tovar va marketing bo‘yicha qora rangli mashhur brendlarning (Hackberry, Tiffaniy, Apple, Disney, Nike, Adidas) ommaviy xarid qilinishi buning yaqqol misolidir. Oddiy bo‘lishdan tashqari qora ko‘p qirrali bo‘lib, boshqa ranglar bilan moslasha oladi. Qorong‘i toifada kiyimlarni tanlagan

¹ @uz.m.wikipedia.org

² @minikar.ru

odamlar o‘zlarini tashqi dunyodan ajratib turadilar va o‘zlari uchun muhim vazifalarni hal qilishga e’tibor berishadi. Ba’zan ushbu rang tushkunlikka tushgan odamlar tomonidan afzal ko‘riladi. Zamonaviy ayollarning kiyimlarida qora rang ustunlik qiladi va ish uchrashuvlari uchun ko‘pincha ayollar qora kostyum kiyishadi.

XXI asrda bu rang imkoniyat, donolik, ustunlik hamda kuch ramzidir. Erkaklar ham rasmiy uchrashuvlarda qora rangda kiyinishni afzal ko‘radi. Chunki bu rang ularni jiddiy, o‘ziga ishongan va o‘z ishiga mas’uliyatli shaxs sifatida gavdalantiradi. Har bir rang har bir millat ma’daniyatida o‘ziga xos lingvokulturologik xususiyatga ega. Bu o‘sha millatdagi aholining turmush tarzidan, ma’daniyatidan, jamiyatsdagi ahvolidan kelib chiqib belgilanadi. Jumladan, yashil rang musulmon olamida o‘ziga xos ramziy rangdir. Undan tashqari yangilanish, yosharish belgilarini ifodalaydi. Qizil rang esa tanimizda oqib turgan qonni bildirib o‘ziga tortuvchi, qiziqqonlik, o‘jarlikni ifodalaydi. Sariq rang ba’zan oltin ma’nosini ifodalasa, ba’zan kasallik ma’nosini bildiradi. Ranglar u yoki bu xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odati, marosimi, qadimiy qarashlari bilan chambarchas bog‘liq.

Xalqlarning mifologik va diniy qarashlari ham ranglarda turlicha aks etadi. Bundan tashqari xalqlarning ijtimoiy hayoti, geografik muhiti ham ranglarga nisbatan munosabatning xilma-xilligiga olib keladi. Jumladan, dunyoning qutbi to‘rt xil rangda tasavvur qilingan: sharq-yashil, janub-qizil, shimol-qora, g‘arb-oq rangda. Shu asosda mintaqalarning har birida yashovchilar uchun o‘sha rang muqaddas sanalgan.³

Aksariyat diniy jamoalarda qora rang hushyorlik va kamtarlik rangi hisoblanadi. G‘arb ma’daniyatida qora rang yovuz kuchlar va qayg‘u bilan bog‘liq.⁴ Motam belgisi sifatida qora kiyim kiyish an’anasi Rim Imperiyasidan kelib chiqqan.⁵ Mamlakatimizning ayrim hududlarida (Toshkent shahri va boshqa shaharlar) bu an’anaga amal qilinadi. Qadimgi Meksikada qurbonlik qilishdan avval ruhoniylar yuzlari va qo‘llarini kuyuk bilan bo‘yashgan. Shunday qilib ular o‘zlarini zulmat muhitiga cho‘mdirganlar va qayg‘uli harakatlar qilganlar.⁶ Bu bilan ular tashqi va ichki holatlarini uyg‘unlashtirishga e’tibor bergan. Ya’ni tanasi qancha qora bo‘lsa, ayni paytdagi kayfiyati, hissiyotlari ham shuncha qora (tushkun)dir. Amerika futbol statistikasi shuni ko‘rsatadiki, hakamlar

³ S.Isroilova. “Boshlang‘ich ta’limda ranglar ahamiyati”

⁴ @tehace.ru

⁵ @tehace.ru

⁶ @tehace.ru

ko‘pincha qora libos kiygan jamoalarni jazolaganlar.⁷ Qadimgi Sharq mamlakatlarida rang simbolikasi paydo bo‘lgan va bularning barchasi Yevropa va Osiyoning rang madaniyatiga katta ta‘sir qilgan. Ranglardan juda keng miqyosda foydalana boshladilar.

Antik davrda rang estetika kategoriyasi sifatida qabul qilina boshladi. Yaqin Sharqda an‘anaviy ayollar kiyimlari ko‘pincha qora rangda bo‘lib, bu kamtarlik, tartibsizlikni tarqatmaslik va ayol tanasini yashirish uchun qo‘llanilgan. Xitoy ma‘daniyatida qora rang suv va shimol bilan bog‘liq. Bu shuningdek, Yeng Yangning qarama-qarshiliklaridan biridir. Qora-Yin-ayol energiyasi, suv-er-Yang xotirjamlik, salqinlik belgisi sanalgan.⁸ Tailandda ushbu rang muvaffaqiyatsizlikni anglatadi. Hindistonda mistik kuchlar ramzi hisoblansa-da, ayni paytda sadoqat va o‘z ustida ishlash rangi ham hisoblanadi. Afrika xalqlari orasida mintaqaga qarab, tasavvuf va xavf bilan yoki donolik va farovonlik bilan bog‘lanadi. Turkolog olim Kononov A.N. “qora” so‘zining ma‘nolarini tadqiq etib, ushbu rang bilan “katta”, “yirik”, “muhtasham”, “ulug‘”, “qudratli”, “kuchli”, “pokiza”, “musaffo”, “quruqlik”, “yer”, “shimol” kabi mazmunlar ifodalanganligini izohlab bergan.⁹

Qoshg‘ar toponimi Mirzayevning yozishicha, “Qoshg‘ar”-nephrit toshi, nephrit g‘ori, “qash”- nephrit, “g‘ar” toshdir. Haqqul fikricha esa, “Qoshg‘ar” toponimining ikkinchi qismi “g‘ar”, “qar” aslida oxirgi “a” tovushi tushib qolgan “qora” so‘zi bo‘lib, qora ma‘nosini bildiradi. Bizningcha, bu fikrlar juda asoslidir. Chunki nephrit toshining nafaqat ko‘k va yashil, balki qora rangdagilari ham uchraydi. Shundan kelib chiqib qaralsa, “Qoshg‘ar” toponimining ma‘nosi “qora nephrit toshi” demakdir. O‘zbek tilining etimologik lug‘atida esa qora rang quyidagicha izohlanadi:

QORA 'ko‘mir tusidagi'; 'eng to‘q rang'. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma‘noni va boshqa bir necha ma‘noni anglatgan bu sifat asli qara tarzida talaffuz qilingan (Devon, III, 240; DS, 422; ПДП, 411); o‘zbek tilida birinchi bo‘g‘indagi a unlisi â unlisiga, ikkinchi bo‘g‘indagi a unlisi ä unlisiga almashgan: qara > qârâ.¹⁰

Turk tilida qora “siyah” yoki “kara” deyiladi. Turk tilining etimologik lug‘atida ham bu so‘z qadimda “qârâ” deb ishlatilganligi aytiladi. “Siyah” esa fors-tojik tilidan o‘zlashgan birlik va bugungi kunda so‘zlashuv tilida asosan “siyah” so‘zi keng qo‘llaniladi. O‘zbek va turk xalqining madaniyatida “qora” rangning aks etishida

⁷ @tehace.ru

⁸ @uz.dailyhoroscopeastros.com

⁹ Kononov A. N. Semantika svetooboznacheniy v tyurkskix yazыkax// Tyurkologicheskiy sbornik. Moskva, 1978.S.161-170

¹⁰ [O‘zbek tilining etimologik lug‘ati \(I-jild\)](#)

o'xshash va farqli tomonlar mavjud. Turk xalqida bu rangning tarixi quyidagicha beriladi:

En baŝta Tanrı, yeryüzü ve gökyüzünü yarattı. Yeryüzü boş ve uçsuz bucaksızdı ve enginler karanlıkla kaplıydı. Tanrı'nın ruhu suların üzerinde geziniyordu ve Tanrı, 'ışık olsun' dedi ve ışık oldu. Tanrı ışığın iyi olduğunu anladı ve onu karanlıktan ayırdı.¹¹ Yaratılıŝ kitabının (Книга Бытие) ilk dört satırına göre dünyanın oluşumu sırasında, yeryüzünde daha hayat yokken karanlık yeryüzüne hakimdi. Ancak karanlıkta yaşamak mümkün değildi ve yaşamın başlayabilmesi için ışık gerekiyordu. Işığa olan ihtiyaç diğerk renklerin oluşmasını sağlamış ve böylece diğerk renkler ortaya çıkmıştır. Her ne kadar daha sonra diğerk renkler oluşsa da siyah rengin başlangıçtan beri var olan ilk renk ve diğerk renklerin kaynağı olduğunu belirtmek mümkündür. İyi ve kötü kavramları her mitoloji, kültür ve dinde var olan temel kavramlar olup, insanları kategorize etmiş, tanrılar, ruhlar, melekler, şeytan, büyü gibi olgularla sembolize edilmiştir. Renkler açısından bu kavramlar ele alındığında kavramlar kadar birbirine karşıt beyaz rengin iyiliği, siyah rengin ise kötülüğü simgelediği ileri sürülebilir.¹²

Ranglarning ramziy belgi berishi qadimgi xudolarga borib tarqaladi. Beyaz rengin iyilik, siyah rengin ise kötülük ile simgelendiği örneklerden ilki mitolojik Tanrılardır. Yeraltı dünyasının efendisi, insanlara kıyamık, tifo gibi salgın hastalıklar ve başka felaketler gönderen, istediklerini vermedikleri takdirde insanları öldüren, bu yüzden kendisine kurbanların sunulduğu, yeraltında kara çamurdan yapılmış bir sarayda oturan, gözleri ve kaşları kömür gibi kara, Türk mitolojisinin kötülük tanrısı Erlik ve hemen hemen onunla aynı özelliklere sahip, insanlara uğursuzluk ve bela getiren, salgın hastalıklar gönderen, açlığa sebep olan Slav mitolojisinin kötülük tanrısı Chernobog siyah renk ile simgelenirken; göklerde yaşayan, beyaz giysiler giyen, uzun sakallı ihtiyar görünümündeki Slav mitolojisinin mutluluk, ışık ve iyilik tanrısı Belobog ise beyaz renk ile simgelenir. Ancak Belobog'dan farklı olarak hava durumunu düzenlediği, verimliliği ve doğurganlığı artırdığı kabul edilen, gökyüzünün hakimi, Türk mitolojisinin iyilik tanrısı Ülgen mavi renk ile simgelenir. Hayırlı bir sonuç elde etmek ya da şifa kazanmak için yapılan, her türlü iyi niyete hizmet eden, Tanrı, melekler ve azizlerden istenen büyü, ak büyü; kişinin işlerinin kötü gitmesi, sağlığının bozulması, sevdiğinden ayrılması, evinde bereket olmaması vb. amacıyla karanlık güçler, şeytan ya da cinlerden medet umularak yapılan büyü ise kara büyü olarak adlandırılır.¹³ O'zbek xalqida esa ilk diniy qarashlar Zardushtiylik diniga borib

¹¹ <https://www.bibleonline.ru/bible/rus/01/01/>, (12.07. 2018).

¹² Akademik tarih ve düşünce dergisi, 2018, 5(18) ss 269-292

¹³ Akademik tarih ve düşünce dergisi, 2018, 5(18) ss 269-292

tarqaladi. “Avesto”da oq-yorug‘likning ziddi o‘laroq, qora va qorong‘ilik ta’rif va tavsif etilgani yaxshi ma’lum. Unda qorong‘ilikning yomonlik, yovuzlik sifatida boshlang‘ich quvvati, ilk manbayi Axrimandir. Lekin o‘tmishda oq rangga nisbatan ham shunday munosabatlar hokimlik qilgani ma’lum.

Rangtasvir ustasi, pedagog M. Saidovning yozishicha, oltoyliklarda oq rang motam ramzi sanalgan. Buning qoldiq belgilari o‘laroq, vatanimizning ayrim hududlarida ta’ziyaga oq ro‘mol o‘rab borish va marhumdan keyin ma’lum vaqtgacha ko‘k rangdagi kiyim kiyib yurish udumlari saqlanib qolgan.

Turklarda esa motam marosimlarida qora rang kiyiladi. Siyah, ayni zamanda matem rengidir. Eski Türk kültüründe matem göstergesi olarak ağırlıklı olarak siyah, siyah rengin yanı sıra beyaz ve kırmızı renklerinin de kullanıldığı görülür. Dede Korkut’ta Beyrek’in ölüm haberi geldiği zaman matem göstergesi olarak yedi kız kardeşi, nişanlısı ve yoldaşları beyaz renkli kıyafetlerini çıkartıp, siyah renkli kıyafetler giyer. Kazak kadını kocası öldüğünde siyah giyinir, kızı ise beyaz elbise giyer, kırmızı şapka takar. Ölü çadırı beyaz olur ve Kurbanali’nin belirttiği üzere ölen genç biri ise kırmızı renkli, yaşlı ise beyaz, orta yaşlı ise bir tarafı siyah ve bir tarafı kırmızı renkli alem bağlanır. Kırgızlarda ölen kişinin eşinin üzerindeki ziynet ve süs eşyaları çıkarılır, kadının örgülü saçları açılır, siyah elbise giydirilip, omuzlarına siyah bir kemze verilir.¹⁴ Ranglar har bir millatda o‘ziga ifodaga (konsept) ega bo‘lib, u nolisoniy omillar, xususan, millatning dunyoni bilishi bilan bog‘liq holda tilda namoyon bo‘ladi va rang orqali har bir millat (til egasi) dunyodagi ma’lum hodisalarni tasavvur qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, ranglarning har bir millat tomonidan har xil tarzda tasavvur qilinishi assotsiatsiyalarda namoyon bo‘ladi, ya’ni assotsiatsiyalar turli tillar egalarining milliy-madaniy tafakkuriga bog‘liq holda turlicha voqelanadi. Yuqoridagi fikrlarga tayanib shuni aytish mumkinki, qora rang tarixda va hozir ham biz turkiylar, xususan, o‘zbeklar va turklar uchun salbiy ma’no bildirmaydi. Islom dinida ham qora rang motam ma’nosida kelmaydi. Har bir rangning o‘rganilishi sotsiologiya, sotsialingvistika, etnografiya, psixologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, mantiq va tasviriy sanat bilan uzviy bo‘g‘liqligi bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov M. Ko‘k, oq, qora ranglarining eski inonchlar ila aloqasi. Ozarbayjon FA xabarлари. 1978.2-son

¹⁴Akademik tarih ve düşünce dergisi,2018,5(18)ss 269-292

2. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jild. 10-jildi. Toshkent.1992. 176-bet
3. Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida. Toshkent.1898. 43-bet.
4. Ochil S. Orzular ko‘kidagi shafaqlar.Toshkent. 1993.337-bet
5. Mironova L.N. Световедение. Minsk. 1984. 71-72с
6. To‘xliyev B. Karimov B. Usmonova K. Adabiyot. 11-sinf. Toshkent. 193-194.
7. Кононов.А.Н. Семантика цветообозначений в тюркских языках
Тюркологический сборник. Москва. 1978.С. 161-170.
- 8.O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (I-jild)
9. <https://www.bibleonline.ru/bible/rus/01/01/> ,(12.07. 2018).
10. Akademik tarih ve düşünce dergisi,2018,5(18)ss 269-292